

Oqoltin tuman Axborot-kutubxona markazi
Axborot bibliografiya xizmati
26-iyun Xalqaro giyohvandlikka
qarshi kurashish kuniga
“Giyohvandlik asr vabosi”
mavzusida bibliografik sharh



Oqoltin 2026-y

“Giyohvandlik asr vabosi”

Giyohvandlikka nisbatan “asr vabosi”deya ta’rif berilgani bejiz emas. Chunki bugungi kunda aynan shu illat tufayli insoniyat salomatligi, taqdiriva kelajagiga rahna solinmoqda. Shuning uchun nafaqat illat, balki global ofat sifatida giyohvandlikka qarshi qat’iy kurashib kelinmoqda. BMTning Narkotiklar va jinoyatchilikni nazorat qilish boshqarmasi hisobotiga ko’ra, dunyoda giyohvand moddalar iste’mol qiluvchilar soni 10-yil ichida 23foiz o’sgan. Ya’ni, 240 milliondan– 296 million nafarga yetgan. Bu haqda so’z borganda, O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning dunyodagi global muammolar yechimi borasida ilgari surgan bir necha tashabbuslari xalqaro hamjamiyat tomonidan qo’llab quvvatlanganligini ta’kidlash lozim. Jumladan, davlatimiz rahbarining 2021-yil sentyabrida bo’lib o’tgan BMT Bosh Assambleyasi 76-sessiyasidagi dolzarb takliflaridan biri– global muammoga aylangan giyohvandlikka qarshi kurash mavzusi bilan bevosita bog’liq. Bu tashabbusning mohiyati nimada? Gap shundaki, O’zbekiston Prezidenti butun dunyo ahlini giyohvandlikka qarshi kurash borasida o’zaro birdamlik va hamkorlikda ish olibborishga chorladi. Prezidentimiz tashabbusi asosida tayyorlangan rezolyutsiya 2024-yil 4 iyun kuni BMT Bosh Assambleyasida bir ovozdan ma’qullandi va qabul qilindi. Mazkur

rezolyutsiya "Markaziy Osiyo davlatlarining giyohvandlik bilan bog'liq muammolarni samarali hal etish va bartaraf etish uchun yagona front bo'lib harakat qilish va hamkorlik qilishga tayyorligi" deb nomlangan. Shu o'rinda so'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar doirasida aholi orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, yurtdoshlarimizda giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarga nisbatan qarshi immunitetni shakllantirish borasidagi ishlar tubdan kuchayganini ta'kidlash zarur. Bunda, shuningdek, inson salomatligini ta'minlash ishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yurtimizda giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar noqonuniy aylanmasining barvaqt oldini olish, aholida ularni iste'mol qilishga nisbatan immunitetni shakllantirish orqali genofondimizga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar bartaraf etilmoqda. Jahon tajribasi negizida giyohvandlikka chalingan bemorlar uchun tibbiy-davolanish tizimi tashkil etilmoqda. Bunda, ayniqsa, 2024-yil 6-may kuni Prezidentimizning "O'zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga chekqo'yish orqali ularning aholi salomatligi va mamlakatimiz genofondiga salbiy ta'sirini bartaraf etish strategik chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni qabul qilingani ulkan ahamiyat kasbetdi. Ushbu hujjatda ayni sohadagi davlat siyosatining istiqbolli yo'nalishlari belgilab berildi. Farmon bilan O'zbekiston Respublikasida giyohvandlik va narko jinoyatlarga qarshi kurashish bo'yicha 2024-2028-yillarga

mo'ljallangan milliy strategiya tasdiqlandi. Milliy strategiyada ko'zda tutilgan chora tadbirlar o'z vaqtida amalga oshirilmoqda. E'tibor bering: BMT Bosh Assambleyasi 2024-yil 4-iyunda qabulqilgan Rezolyutsiya matnida – O'zbekiston Prezidentining 2024-yil 6-maydagi Farmon bilan tasdiqlangan Milliy strategiya qoidalari o'z aksini topgan. Bu, shubhasiz, O'zbekiston giyohvandlikka qarshikurash borasidagi milliy, mintaqaviy va xalqaro tashabbuslarini uzviy bog'liqlik va muntazamlilik asosida ilgari surayotganidan dalolat beradi. Yanada muhimi shuki, O'zbekistonning Markaziy Osiyoda giyohvand moddalar savdosi va giyohvandlikka qarshi kurash borasida olibborayotgan izchil siyosati tufayli mintaqamizda bu borada ijobiy natijalarga erishilayotgani ham ayni haqiqatdir. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ko'rilayotgan chora-tadbirlarga qaramay, jahonda giyohvand moddalar noqonuniy savdosi, giyohvandlik xastaligi muammoligicha qolmoqda. Bu muammoga hamon jiddiy tahdid sifatida qaralmoqda. BMTning narkotiklar va jinoyatchilik bo'yicha Boshqarmasi ma'lumotlariga ko'ra, 2020 yilda dunyo aholisi orasida 15 yoshdan 64 yoshgacha bo'lgan 284 milliondan ortiq odam turli xil narkotiklar iste'mol qiladi. Natijada 35 milliondan ortiq narkotik iste'mol qiluvchilar turli xil kasalliklardan aziyat chekmoqda. Bu raqam narkotiklarni in'eksiya yo'li bilan iste'mol qiluvchi 12 million kishini ham o'z ichiga oladi, ularning deyarli yarmi S gepatitiga, 1,4 millioni OIV infeksiyasiga chalingan. 15-60 yosh oralig'ida qayd etiladigan o'limlarning 1,3 foizi

giyohvandlik oqibatida yuz berar ekan. Bir yilda 200 mingdan ortiq o'lim aynan giyohvandlik oqibatida kelib chiqadi. Yevropa davlatlarida giyohvandlik oqibatida halok bo'layotganlarning o'rtacha yoshi 35 yoshni tashkil qiladi. Giyohvandlikka qarshi kurashish, aniqroq aytganda, uning kelib chiqish sabab va omillariga qarshi kurash olib borish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. Zero, giyohvandlik ijtimoiy kasallik bo'lib, u nafaqat insonning jismoniy va ruhiy holatini izdan chiqaradi, balki uning oilasiga, yon atrofiga, jamiyatga zararli ta'sir ko'rsatadi, turli ijtimoiy muammolarga sabab bo'ladi. Shusababli, barcha mas'ulidoralar, jamoat tashkilotlari, vazirlik va boshqarmalar e'tiborini mamlakatimizda giyohvandlikning oldiniolishga, mas'uliyatni yanada kuchaytirishga, bu illatning tarqalishiga imkon berayotgan sharoit va omillarni bartaraf etishga qaratishimiz muhim. Jamoatchilik nazoratini yanada kuchaytirish lozim. Ayniqsa , ta'lim muassasalarida bu boradagi ishlar ko'lamini kengaytirish talab etiladi, chunki ushbu muassasalarda yurtimiz kelajagihisoblangan yoshlar ta'lim-tarbiya olmoqda.

Yuqoridagilarga e'tiboran mamlakatimizda giyohvandlikka qarshikurashish, u bilan bog'liq kasalliklarni davolash bo'yicha huquqiy asoslar yaratilmoqda, qonunchilikdagi zarur o'rinlar to'ldirilmoqda. Jumladan, Senatning 42-yalpi majlisida muhokama qilingan "Narkologik kasalliklar profilaktikasi va ularni davolash to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida" gi qonun ushbu sohada yuzaga

kelayotgan muammolarni bartaraf etishga qaratilgan. Mazkur qonun bilan ichki ishlar organlariga narkologik kasalliklarga chalingan shaxslarni majburiy davolashga yuborish to'g'risidagi materiallarni rasmiylashtirish vakolati berilmoqda, mazkur materiallarni tayyorlash tartibiga o'zgartishlar kiritilmoqda. E'tiborlisi, qonunda fuqarolarning narkologik tekshiruvdan o'tkazilishi, maslahat berilishi, tashxis qo'yilishi, narkologik kasalliklarga chalingan shaxslarning ambulatoriya va statsionar sharoitlarda davolanishini hamda tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiya qilinishini davlat kafolatlashi belgilab qo'yilmoqda. Umuman, bu qonunning qabul qilinishi narkologik yordam ko'rsatish sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Yanabir jihat. "Aholining ruhiy salomatligini muhofaza qilish xizmatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Prezident qarori qabul qilindi. Qarorga ko'ra yaqin kelajakda Respublika ixtisoslashtirilgan ruhiy salomatlik ilmiy-amaliy tibbiyot markazi tashkil etiladi. Ushbu markaz ixtisoslashtirilgan psixiatrik, tibbiy-psixologik va narkologik yordam ko'rsatishni yo'lga qo'yadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, mamlakatimizda yosh avlodninghar tomonlamasog'lomvabarkamolvoyagayetishi, giyohvandlikka barham berish, narkologik kasalliklarni samarali davolash borasida sezilarli islohotlar davometadi.

Foydalangansayd: <https://uza.uz/oz/posts/giyohvandlikka-qarshi-tizimli-kurashish-dolzar>